



FIRIBGARLIK JINOYATINING JINOIY-HUQUQIY TAVSIFI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SUBANOV Olimjon Suyarkul o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrası
katta o‘qituvchisi, dotsent (+99893) 551-71-30

Annotasiya. Maqolada firibgarlik jinoyatining huquqiy tavsifi, uning asosiy belgilari, shakllari va boshqa mulkiy jinoyatlardan farqlari yoritilgan. Firibgarlik — bu o‘zganing mulkini aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish orqali egallashga qaratilgan jinoyat bo‘lib, mulk egasining ixtiyoriy topshiruvi bilan amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Firibgarlik, jinoyat kodeksi, aldash, ishonchni suiiste’mol qilish, mulk, huquqiy tavsif, jinoyat tarkibi, ob’ektiv tomon, subyektiv tomon, mulkiy zarar, talon-toraj, o‘zlashtirish, o‘g‘rilik, tovlamachilik, kvalifikatsiya, sud amaliyoti, jinoyat subyekti, jazo, qasddan jinoyat, iqtisodiy jinoyatlar.

УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ОСОБЕННОСТИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ МОШЕННИЧЕСТВА.

Аннотация. В статье рассматриваются правовая характеристика преступления мошенничества, его основные признаки, виды и отличия от других имущественных преступлений. Мошенничество — это преступление, направленное на завладение чужим имуществом путём обмана или злоупотребления доверием, совершённое с добровольной передачей имущества собственником.

Ключевые слова: Мошенничество, Уголовный кодекс, обман, злоупотребление доверием, имущество, правовая характеристика, состав преступления, объективная сторона, субъективная сторона, имущественный ущерб, грабеж, хищение, кража, вымогательство, квалификация, судебная практика, субъект преступления, наказание, умышленное преступление,





CRIMINAL-LEGAL CHARACTERISTICS AND FEATURES OF THE CRIME OF FRAUD.

Annotation. The article examines the legal characteristics of the crime of fraud, its main features, types and differences from other property crimes. Fraud is a crime aimed at taking possession of someone else's property by deception or abuse of trust, committed with the voluntary transfer of property by the owner.

Key words: Fraud, Criminal Code, deception, abuse of trust, property, legal characteristics, elements of the crime, objective side, subjective side, property damage, robbery, embezzlement, theft, extortion, qualification, judicial practice, subject of the crime, punishment, intentional crime, economic crimes.

Firibgarlik jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi. Firibgarlik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali haq to'lamay egallashda ifodalanib, buning natijasida mulk egasi yoki boshqa shaxs yoxud vakolatli hokimiyat organi mulkni yoki unga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga beradi yoiniki ushbu mulk yoki unga bo'lgan huquq boshqa shaxs tomonidan olib qo'yilishiga imkon beradi. [1].

Firibgarlik jinoyatining ob'ekti – o'zgalar mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Firibgarlik jinoyatining predmeti: 1) o'zganing mulki; 2) o'zganing mulkiga bo'lgan huquq hisoblanadi. O'zganing mulkiga bo'lgan huquq odatda turli xil hujjatlarda (masalan, mulkni tasarruf qilishga huquq beruvchi ishonchnoma va sh.k.) mustahkamlanadi.

Firibgarlik jinoyati ob'ektiv tomondan o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda olish maqsadida qilingan aldov harakatlarida yoki shu maqsadda jabrlanuvchining ishonchini suiiste'mol qilgan holda mulkka bo'lgan huquqni qo'lga kiritishida namoyon bo'ladi. Jinoyat kodeksining 168-moddasi dispozitsiyasiga muvofiq firibgarlikda aldash deganda aybdor tomonidan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumotlar xabar qilinishi yoki ish holati bo'yicha mulk egasi





yoki boshqa shaxsga ma'lum qilinishi lozim bo'lgan haqiqiy faktlarni yashirish yoxud mulk egasi yoki boshqa shaxsni yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi.

Firibgarlikda yolg'on ma'lumotlarga jabrlanuvchini yanglishtirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar, jumladan, yuridik fakt va voqealar, mulkning sifati, narxi, aybdorning shaxsi, vakolati, niyati (masalan, aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida ko'rsatishi) taalluqli bo'lishi mumkin.

Firibgarlikda jabrlanuvchini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etiladigan harakatlar jumlasiga, masalan, bitim yoki to'lov predmetini soxtalashtirish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'ynash chog'ida aldov usullarini qo'llash kabilar kiradi.

Ishonchni suiiste'mol qilish, firibgarlikning ikkinchi shaklini tashkil qiladi. Ishonchni suiiste'mol qilish deganda aybdor tomonidan mulk egasi yoki mulkni uchinchi shaxslarga berib yuborish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan boshqa shaxslar bilan bo'lgan ishonchli munosabatlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi tushunilishi lozim. Ishonchga turli holatlar, masalan, aybdor shaxsning xizmat mavqei yoki uning jabrlanuvchi bilan shaxsiy yoki qarindosh-urug'lik munosabatlari sabab bo'lishi mumkin.

Ishonchni suiiste'mol qilish mustaqil usul sifatida sodir etilgan firibgarlikda faol aldov (haqiqatni buzib ko'rsatish) ham, faol bo'lmagan aldov (haqiqatni yashirish) ham mavjud bo'lmasdan, faqat o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni suiiste'mol qilish holati mavjud bo'ladi.

O'zaro ishonch asosidagi munosabatlar natijasida mulk bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazilishi, ya'ni unga berib qo'yilishi va hujjatsiz, shunchaki ishonib topshirilishi mumkin.

Jabrlanuvchining aybdorga nisbatan ishonchli munosabatining mazmuni, xususiyati, manbai, sabablari, muddati va boshqalar sodir etilgan qilmishning baholanishiga ta'sir qilmaydi. Ishonchni suiiste'mol qilish orqali sodir etilgan firibgarlik paytida jabrlanuvchi va aybdor xizmatdosh, tanish, xizmat ko'rsatish munosabati bilan o'zaro aloqada bo'lgan shaxs va boshqalar bo'lishi mumkin.

Firibgarlik jinoyatining zaruriy belgisi mulkdorning o'z mulkini yoki mulkka





bo'lgan huquqini ixtiyoriy ravishda aybdorga topshirishidir.

Mulkni egallashga qaratilgan firibgarlik mazkur mulk aybdor yoki boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy egaligiga o'tgan va ular undan xohlagan tarzda foydalanish yoki tasarruf etish uchun real imkoniyatga ega bo'lgan paytdan tugallangan hisoblanadi.

Qonunga ko'ra, shaxs bankdagi pul mablag'larini ular uning bankdagi hisobvarag'iga kelib tushgan paytdan boshlab amalda tasarruf qilish imkoniga ega bo'lganligi tufayli, jinoyat bu mablag'lar ularni mablag' egasining hisobvarag'idan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan olgan shaxsning yoki boshqa shaxsning bankdagi hisob varag'iga o'tkazilgan paytdan e'tiboran tugallangan deb topilishi lozim.

O'zganing mulkiga bo'lgan huquqni egallashga qaratilgan firibgarlik aybdorda o'zganing mulkiga egalik qilish yoki uni tasarruf etish uchun yuridik jihatdan tasdiqlangan imkoniyat paydo bo'lgan paytdan (masalan, ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqi yoki qonunga muvofiq ro'yxatga olinishi shart bo'lgan boshqa mulkka nisbatan huquq – ro'yxatga olingan paytdan; shartnoma – tuzilgan vaqtdan; mulkka nisbatan shaxsning huquqi tan olingan sud qarori –kuchga kirgan kundan; vakolatli davlat organi aybdorda yoki boshqa shaxslarda mulkka nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun asoslar mavjudligi to'g'risida qaror – qabul qilgan kundan) tugallangan hisoblanadi.

Sub'ektiv tomondan firibgarlik jinoyati to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatning sub'ekti 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

Firibgarlik jinoyatini kvalifikatsiya qilish qoidalari. Agar shaxs o'zganing mulkini yoki unga bo'lgan huquqni mazkur mulk yoki huquq unga berilishi sharti bilan bog'liq majburiyatlarni bajarmaslik niyatida olgan yoki egallagan bo'lsa, qilmish aybdorda o'zganing mulkini yoki unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishga nisbatan qasd faqat o'zganing mulki yoki unga bo'lgan huquq qo'lga kiritilgunga qadar paydo bo'lgan holdagina firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Aybdorning soxta hujjat yoki kafolat xatlaridan foydalanishi, qarz mavjudligi yoki mulk garov ostidaligi to'g'risidagi ma'lumotni yashirishi, bitimda taraflardan biri sifatida ishtirok etish uchun soxta korxona (tashkilot) tuzishi, kredit mablag'laridan maqsadga zid foydalanishi yoxud ularni naqdlashtirishi kabilar o'zganing mulkini





talon-toraj qilishga qaratilgan qasd mavjudligidan guvohlik berishi mumkin. Mazkur holatlar sud shaxsning firibgarlik sodir etishda aybdorligi to'g'risida oldindan xulosaga kelishi uchun o'z o'zidan asos bo'lmaydi, shu tufayli shaxsning o'z majburiyatlarini bila turib bajarish niyati bo'lmaganligi har bir muayyan holda ishning barcha holatlaridan kelib chiqib aniqlanishi shart.

Taqdim etuvchiga beriladigan qimmatli qog'ozlarni, ya'ni ularni ushlab turgan har qanday shaxs ularda tasdiqlangan huquqni amalga oshirishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar (obligatsiya, aksiya, taqdim etuvchiga beriladigan omonat daftarchasi yoki qonunga ko'ra, qimmatli qog'ozlar qatoriga kiritilgan boshqa hujjatlar)ni yashirin ravishda talon-toraj qilish firibgarlik tarkibini tashkil etmaydi. Qilmish bunday hollarda o'zganing mulkini o'g'irlash sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

O'zganing pul mablag'larini o'g'irlangan (qalbakilashtirilgan) kredit yoki hisob kartasidan foydalangan holda talon-toraj qilish, agar naqd pul mablag'lari bankomat vositasida olingan bo'lsa, o'zganing mulkini o'g'irlash sifatida baxolanishi lozim. Biroq bunday talon-toraj qilish shaxs kredit, savdo yoki servis tashkilotining vakolatli xodimini aldash yoki ishonchini suiiste'mol qilish orqali uni yanglishtirgan (masalan, savdo yoki servis markazida tovarlarga yoki xizmatlarga haq to'lash uchun bank kartasidan foydalangan holda shaxs xarid chiptasiga kartaning qonuniy egasi o'rniga imzo qo'ygan yoki uning nomiga qalbakilashtirilgan pasport taqdim etgan) holdagina firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shu bilan birga davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy to'lov, nafaqa, boshqa pul to'lovlari (masalan, kompensatsiyalar, sug'urta to'lovlari)ni olish uchun asos bo'ladigan holatlar (oluvchining shaxsi, nogironligi, boqimandaligi, urush harakatlarida qatnashganligi, ishga joylashtirish imkoni yo'qligi, sug'urta hodisasi ro'y berganligi) mavjudligi to'g'risida tegishli hal qiluv qarori qabul qilishga vakolatli ijro hokimiyati, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari, muassasa yoki tashkilotlarga bila turib yolg'on ma'lumotlar taqdim etish yo'li bilan olishni ham firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

Ijtimoiy to'lov, nafaqa yoki boshqa pul to'lovlarini olish uchun qonuniy asoslar tugaganligi to'g'risida tegishli organlarga qasddan xabar bermay, ularni olishni davom ettirgan shaxsning harakatlari ham shu tariqa kvalifikatsiya qilinishi kerak.





Firibgarlik jinoyatidan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish jinoyatini (JK 170-moddasi) farqlash lozim. So'nggi holda shaxs o'zganing mulkini bevosita olib qo'ymasdan va unga nisbatan huquqqa ega bo'lmasdan, qonunga (shartnomaga) ko'ra, mulkdor egaligi yoki tasarrufiga o'tishi lozim bo'lgan tovar-pul boyliklarini o'zlashtiradi va ana shu hisobdan boyiydi.

Mulkiy xususiyatdagi g'ayriqonuniy foyda olish maqsadida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish, misol uchun, shaxs tomonidan qonunchilikda belgilangan to'lovlarni to'lashdan ozod etuvchi qalbaki hujjatlarni taqdim etishda (JK 184-moddasida nazarda tutilgan hollardan tashqari) ifodalanishi mumkin.

Aldov shaxs tomonidan o'zganing mulkini qo'lga kiritishni osonlashtirish maqsadida ishlatilgan bo'lib, mulkni olib qo'yish jarayonida mulk egasi yoki boshqa shaxs uning asl niyatini sezib qolgan, aybdor buni anglasa-da, biroq mulk egasining xoxishi-erkiga zid ravishda mulkni olishni yoki ushlab turishni davom ettirgan hollarda (masalan, shaxs mobil telefonni uning egasidan vaqtincha foydalanish uchun so'rab olib, so'ngra talon-toraj qilingan telefon bilan yashiringan) qilmish talonchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Firibgarlik yo'li bilan korxona, muassasa, tashkilotlar mulkini talon-toraj qilish uchun jinoiy javobgarlik talon-toraj qilingan mulk qiymati MJtK 61-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan miqdordan oshgan holdagina (jumladan, kvalifikatsiya belgilari mavjud bo'lganda ham) kelib chiqadi.

Agar firibgarlik yo'li bilan talon-toraj qilingan korxona, muassasa, tashkilotlar mulkining qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmasa, ushbu qilmish ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi. Ushbu huquqbuzarlik takroran sodir etilsa ham, agar talon-toraj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmasa, ma'muriy javobgarlik kelib chiqadi. Chunki bunda oz miqdorda talon-toraj qilish necha marta sodir etilganligining ahamiyati yo'q.

Ta'kidlash joizki, qonunga ko'ra, fuqarolar mulkini firibgarlik yo'li bilan talon-toraj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik talon-toraj qilingan mulk miqdoridan qat'i nazar kelib chiqadi. Ayni paytda talon-toraj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmagan har bir holda surishtiruv, tergov organlari va sudlar ayblanuvchi (sudlanuvchi)ning shaxsiga va moddiy zarar qoplanishiga oid ma'lumotlarni inobatga olgan holda jinoyat ishini Jinoyat kodeksining 65 va 66-





moddalariga asosan tugatish masalasini muhokama etishlari shart.

Firibgarlikni iqtisodiyot sohasidagi bir qator jinoyatlardan, shu jumladan, o'zganing mulkini talon-toraj qilishning boshqa shakllaridan farqlamoq lozim. Firibgarlikning o'g'rilikdan (JK 169-m.) farqi shundaki, firibgarlikda aybdor mulkni o'zganing egaligidan olib qo'ymaydi, balki u yanglishtirgan jabrlanuvchining o'zi mulkni yoki mulkka bo'lgan huquqini berib yuborishiga erishadi.

Tovlamachilikdan (JK 165-m.) firibgarlik shu bilan farqlanadiki, tovlamachilikda jabrlanuvchining irodasi sindirilgan bo'ladi va u qo'rquv ta'sirida harakat qiladi, firibgarlikda esa aldov natijasida jabrlanuvchining erki yanglishadi.

Firibgarlik jinoyatidan o'tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalari, shuningdek, qimmatli qog'ozlar yoki chet el valyutasi yoxud chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish (JK 176-m.) qasd yo'nalishi va soxtalashtirish xususiyati bilan farqlanadi. Bunda pul belgisi yoki chet el valyutasi pul aylanmasiga kiritish uchun soxtalashtiriladi. Qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish bilan bog'liq firibgarlikda esa (masalan, pul kupyurasiga bir necha nol raqamlarini qo'shib yozish, suvenir banknotlarni, banknot yoki qimmatli qog'ozlarning foto, kseronusxalarini ishlatish va h.k.) qasd muayyan shaxsni aldash va mulkiy foyda olishga qaratilgan bo'ladi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 415-moddasi talablariga rioya etgan holda sud ayblovi o'zgartirishi va sudlanuvchining harakatlarini qonunning boshqa moddasi (qismi, bandi)ga kvalifikatsiya qilishga, shuningdek, jinoyatning ayrim epizodlarini (sudlanuvchining aybiga kiritilgan harakatlardan) qonunning u bo'yicha sudlanuvchiga ayb e'lon qilinmagan moddasiga kvalifikatsiya qilishga haqli, basharti yangi modda dispozitsiyasi og'irroq jinoyat alomatlarini nazarda tutmasa va ayblov ish bo'yicha e'lon qilingan ayblovdan haqiqiy holatlari jihatidan jiddiy farq qilmasa. Shundan kelib chiqib, firibgarlik o'zganing mulkini talontoraj qilish shakllaridan biri ekanligini, o'zganing mulkini firibgarlik, o'zlashtirish va rastrata qilish yo'li bilan talon-toraj qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun moddalari (qismlari) sanksiyalari aynan bir xilligini inobatga olib, sud ishni qo'shimcha tergov yuritish uchun qaytarmasdan aybdorning harakatlarini JPKning 415-moddasiga rioya etgan holda Jinoyat kodeksining 167-moddasidan 168-moddasiga yoki aksincha, qayta kvalifikatsiya qilishga haqli. [2].





Firibgarlik jinoyati sodir etilguniga qadar qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan o'ta xavfli residivist deb topilgan shaxslarning harakatlari, agar uning o'ta xavfli residivist deb topilganlik holati qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmagan bo'lsa, aybdorning qilmishi Jinoyat kodeksi 168-moddasi uchinchi qismining «b» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Firibgarlik jinoyati uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining 168-moddasi uchinchi qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq, yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hulosa qilsak, firibgarlik — o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali egallashga qaratilgan jinoyat bo'lib, u mulkdor tomonidan mulkning ixtiyoriy ravishda berilishi bilan amalga oshadi. Ushbu jinoyat mulkiy munosabatlarga zarar yetkazadi va jinoyatning sub'ektiv tomoni to'g'ri qasd bilan tavsiflanadi. Firibgarlik jinoyatini kvalifikatsiya qilishda mulkning qanday yo'l bilan qo'lga kiritilgani, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish holatlari va qasdning mavjudligi asosiy mezon hisoblanadi. Qonunga ko'ra, moddiy zarar qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilmasligi mumkin. Firibgarlik o'zlashtirish, o'g'rilik va tovlamachilik kabi jinoyatlardan huquqiy jihatdan aniq farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T.:2025
<https://lex.uz/docs/111453>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. T.:2025
<https://lex.uz/docs/111460>

